

MARKETING

ILMIY, AMALIY VA OMMABOP JURNAL

1-oktyabr- O'qituvchi va
Murabbiylar kuni



№9 – SON

9710 xalqaro daraja



№240874



ISSN: 3060-4621

2025-YIL, SENTYABR





JURNALNING MAQSADI

Tadbirkorlik-biznes faoliyatini tashkil etishning marketing asoslarini, yo'nalishlari, echimlari, vositalarini yaratish va rivojlantirish

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

TEL: (97) 783-84-64

VEB-SAYT

www.marketingjournal.uz

ELEKTRON POCHTA:

info@marketingjournal.uz

TELEGRAM BOT:

[@marketinjournalbot](https://t.me/marketinjournalbot)

TELEGRAM KANAL:

<https://t.me/tdiumarketingjournal>

MUASSIS

“Tadbirkor va ishbilarmon” MCHJ

JURNALNING ILMIYLIGI

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining **2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

INDEKSATSIYA



BOSH MUHARRIR

Xakimov Ziyodulla Axmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Yusupov Muxamadamin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor;

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori;

Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., prof., TDIU Marketing kafedrasini mudiri;

Soliyev Axmadjon Soliyevich, i.f.d., NaMTI Marketing kafedrasini professori;

Ikramov Murad Akramovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich, i.f.d., prof., TDIU Iqtisodiy xavfsizlik kafedrasini mudiri, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi;

Zarova Elena Viktorovna, i.f.d., G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti professori, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi

Akramov Tohir Abdurahmonovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Samadov Asqarjon Mishomovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi, i.f.n., dots., TDIU Kengash kotibi;

Sobirov Azizbek Avazbekovich, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Sadikov Shoxrux Shuxratovich, PhD, dots., TIU Departament boshlig'i;

Musyeva Shoirazimovna, i.f.n., SamISI Marketing kafedrasini professori;

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Djurabayev Otabek Djurabayevich, i.f.d., TDIU Innovatsion menejment kafedrasini dotsenti;

Karimova Shirin Zoxid qizi, PhD, TDIU Axborot texnologiyalari kafedrasini katta o'qituvchisi;

Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbaevich, DSc., Namangan muhandislik-qurilish instituti dotsenti;

Fayzullayev Javlonbek Sultonovich, DSc., TDIU, Yashil iqtisodiyot kafedrasini dotsenti;

Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, DSc., TDIU, “Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik” kafedrasini professori

Bobojonov Azizjon Babaxanovich, DSc, TDIU, “Raqamli iqtisodiyot” kafedrasini dotsenti

Allayarov Shamsiddin Amanullayevich, DSc, prof., TDIU, “Savdo ishi” kafedrasini mudiri

Jumayev Olimjon Sadulloevich, DSc, Raqobat siyosati va iste'molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi direktori

Maxamadjanov Akbar Maxamadaliyevich, PhD., TDIU Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari fakulteti dekan muovini

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., Alfraganus universiteti “Menejment va marketing” kafedrasini mudiri

Kucharov Abrorjon Sobirjanovich, TDIU biznes boshqaruvi va logistika kafedrasini professori

Tuychiyev Alisher Jurayevich, Alfraganus University “Iqtisodiyot” fakulteti dekani professor

Nazarova Ra'no Rustamovna, TDIU “Yashil” iqtisodiyot kafedrasini mudiri, Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Usmonov Bunyod Aktam o'g'li, PhD, TDIU Moliyaviy tahlil kafedrasini v.b.dotsenti;

Dehqonov Burxon Rustamovich, PhD., TDIU Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi bosh mutaxassisi;

Turobova Hulkar Rustamovna, PhD., BuxDU, Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasini dotsenti;

Elektron nashr 603 sahifa. E'lon qilishga 2025-yil 29-sentyabrda ruxsat etildi

MUNDARIJA

ЭТАПЫ РАЗРАБОТКИ МЕХАНИЗМОВ ОБЕСПЕЧЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЯ	7
Кучаров Абдор Собиржонович, Бобожонов Азизжон Бабаханович, Хусейнов Рахим Али оглы	
KADRLAR TAYYORLASH MENEJMENTIDA INNOVATSION TADBIRKORLIKNI QO‘LLAB-QUVVATLASHGA QARATILGAN TA‘LIM XIZMATLARI KO‘RSATISH TURLARI TAHLILI	16
Ergashev To‘lqin Shokirovich	
ЭВОЛЮЦИЯ И ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ МЕЖДУНАРОДНОГО БИЗНЕСА В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ.....	23
Мирисаев Абдурахман Абдулахатович	
E-COMMERCE DIFFERENCES BETWEEN DEVELOPING AND DEVELOPED COUNTRIES.....	33
Makhmudova Munisakhon Abbos qizi	
TO‘QIMACHILIK KORXONALARINING MARKETING DASTURLARINI RAQAMLASHTIRISH ASOSIDA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI	40
Ikramova Taxmina Latifovna	
MINTAQAVIY RESURLARNI BOSHQARISHDA MENEJMENT YONDASHUVLARI: INSTITUTSIONAL NAZARIYA VA IQTISODIY XAVFSIZLIK INDIKATORLARI ASOSIDA BAHOLASH.....	50
Ismoilov Abdulxoliq Muxiddin o‘g‘li	
TADBIRKORLIKNI BOSHQARISHDA ZAMONAVIY YETAKCHILIK MODELLARIDAN FOYDALANISH	60
Kazakov Olim Sabirovich	
TO‘G‘RIDAN-TO‘G‘RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI QABUL QILUVCHI MAMLAKATLAR IQTISODIYOTIGA TA‘SIRI BO‘YICHA EKONOMETRIK DALILLAR: USLUBLARGA ASOSLANGAN SHARH	67
Madumarov Xusniddin Komilovich	
TO‘QIMACHILIK KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI TA‘MINLASHDA KORPORATIV MADANIYAT VA MARKETING STRATEGIYALARI UYG‘UNLIGI	78
Matrizayeva Dilaram Yusupbayevna	
AHOLINING MODDIY FAROVONLIGI TUSHUNCHASI VA UNGA TA‘SIR ETUVCHI OMILLARI	84
Mirzamurodov Oltinbek Sultonali o‘g‘li	
SUN‘IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN KICHIK BIZNESDA FOYDALANISHNING XORIJIY TAJRIBALARI VA O‘ZBEKISTONDA QO‘LLASH IMKONIYATLARI	90
Navruz-zoda Layli Baxtiyorovna	
CHAKANA SAVDODA ONLAYN KO‘RIB, OFLAYN XARID QIL (ROPO) MODELIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARINI ANIQLASH.....	98
Rajapova Gulmira	
TRANSPORT-LOGISTIKA TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA IQTISODIY MEXANIZMLARNING ROLI VA SAMARADORLIGI	105
Agzamova Marguba Mirabdullayevna	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA ISHLAB CHIQRISHNI AVTOMATLASHTIRISH, ERP VA CRM TIZIMLARINI JORIY ETISH ORQALI SAMARADORLIKNI OSHIRISH	113
Uzakova Umida Ruziyevna	
FEATURES AND DISADVANTAGES OF IMPLEMENTING THE DIGITAL ECONOMY FOR CONSTRUCTION COMPANIES	122
Kurbanova Maftuna Lazizovna, Muhammad al-Khwarizmi	
LEVERAGING INNOVATIVE MARKETING STRATEGIES IN RETAIL THROUGH DISTRIBUTED DATA AND KNOWLEDGE-BASED SYSTEMS	134
Karimova Nafisabonu Djamshidovna	
XALQARO RAQOBATBARDOSHLIKNI BAHOLASH BO‘YICHA USLUBIY YONDASHUVLAR....	145
Mallaboyev Anvarjon Sotvoldiyevich	

FOREIGN EXPERIENCE IN ORGANIZING REMOTE BANKING SERVICE	154
Abduvohidov Abdumalik Mahkamovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING	
IQTISODIY-IJTIMOIIY OQIBATLARI TAHLILI	161
Xatamov Nurbek Ochildiyeovich	
THE IMPACT OF GREEN BUSINESS EDUCATION AMONG ENTREPRENEURS ON THE	
ECONOMY: A LITERATURE REVIEW	172
Amonov Sardor Zamon o'g'li, Turobova Hulkar Rustamovna	
ISTE'MOLCHILARNING EKOLOGIK ONGINI SHAKLLANTIRISHDA RAQAMLI	
MARKETINGNING ROLI	188
Uzoqova Dilnoza Yusuf qizi	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQUVCHI KORXONALARNI BOSHQARISHNING	
XORIJ MAMLAKATLAR TAJRIBASI VA ULARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	196
Uzakova Umida Ruziyevena	
TEMIR YO'L TRANSPORTI INFRATUZILMASINI TAKOMILLASHTIRISH VA LOGISTIKA	
SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA SUN'IY INTELEKTDAN FOYDALANISH	
IMKONIYATLARI.....	203
Qilichev Umid Ibodullayevich	
UNIVERSITETNI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA BENCHMARKING USULIDAN	
FOYDALANISH YO'LLARI.....	210
Maxmudov Faxriddin Umarovich	
O'ZBEKISTONDA UY-JOY QURILISHINI RIVOJLANISHI TAHLILI	219
Usmanov Mirumar Abdulla o'g'li	
KIMYO SANOATI KORXONALARIDA INVESTITSION LOYIHALARNI BOSHQARISH	
SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING	
NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI.....	228
Sabirov Oybek Shavkatbekovich	
QASHQADARYO VILOYATIDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK TOMONIDAN ISHLAB	
CHIQUILGAN MAHSULOT HAJMINING PROGNOZLASH.....	237
Xudoyorov Laziz Niyozovich	
РАЗВИТИЕ ИННОВАЦИОННОГО МЕНЕДЖМЕНТА В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ	
ГЛОБАЛЬНОЙ КОНКУРЕНЦИИ.....	246
Азизов Ильдар Рафаэлевич	
TIJORAT BANKLARI IQTISODIY SAMARADORLIGINI RAQAMLI XIZMAT TURLARI ORQALI	
RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLARI.....	254
Foziljonova Mushtariybonu Farruxbek qizi	
KORXONALAR PUL OQIMLARI BOSHQARUVIDA PROGNOZ USULLARIDAN FOYDALANISH	263
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li	
ELEKTRON SAVDO SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA SUN'IY INTELEKT ASOSIDAGI	
INTEGRATSIYALASHGAN RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARINING O'RNI VA AMALIY	
JIHATLARI.....	270
Abidjonov Nodirbek Odiljon o'g'li	
INNOVATSION IQTISODIYOTNI SHAKLLANTIRISHDAGI ILG'OR XORIJ MAMLAKATLAR	
TAJRIBASI.....	277
Rajabov Alibek Xushnudbekovich	
O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORIDA YASHIL SUG'URTA KONSEPSIYASI: ZARURAT, JORIY	
HOLAT VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	285
Zoyirov Laziz Subxonovich	
BREND QIYMATINI ANIQLASHNING METODOLOGIK YONDASHUVLARI VA ULARNING	
SAMARADORLIGI.....	294
Maxmudov Tohirjon Olimjonovich, Odilov Akbarjon Nosirjon o'g'li	
XUSUSIY OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM SIFATINI BOSHQARISHNI	
TAKOMILLASHTIRISH.....	304
Gulmatov Bahodir Xabibullayevich	

KORXONALAR BREND QIYMATINI ANIQLASHNING ILMIY-METODOLOGIK ASOSLARI	311
Maxmudov Tohirjon Olimjonovich	
MINTAQA TURIZM SALOHİYATINI VA UNGA TASIR ETUVCHI OMILLAR.....	318
Nasriddinov Husanbek Sadriddin o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA OZIYQ-OVQAT SANOATI DON MAHSULOTLARI TARMOG'IDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH: NAZARIY-METODOLOGIK YONDASHUV	324
Dildora Kurbanova	
XALQARO SAVDONING SIRKULAR IQTISODIYOT TAMOIYLLARIGA UYG'UNLASHUVIDA ASOSIY TENDENSIYALAR.....	333
Muratova Shohista Nimatullayevna	
QISHLOQ XO'JALIGI KLASSTERLARINING MOLIVAVIY BARQARORLIGINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI.....	342
Yuldasheva Dildora Kamiljan qizi	
KOMPAIYALARDA IQTISODIY KO'RSATKICHLARNI YAXSHILASHDA XODIMLAR SALOHİYATINING O'RNI.....	350
Sattarov Shuxrat Abug'affarovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDLARI RIVOJLANISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	355
O'rozov Azamat Otaboyevich	
KIMYO SANOATI KORXONALARIDA RAQAMLI KOMMUNIKATSIYA STRATEGIYALARINING SAMARADORLIGINI KPI VA ROI INDIKATORLARI ASOSIDA BAHOLASH.....	363
Muminova Dildora Dilshadovna	
HUMAN CAPITAL DEVELOPMENT THROUGH INVESTMENT: INTERNATIONAL EXPERIENCE OF DEVELOPING COUNTRIES	371
Akhmadaliyeva Nikholakhon	
MILLIY IQTISODIYOTNING TASHQI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHGA YONDASHUVLAR.....	378
Jalolov Bekzod Sherzod o'g'li	
"DAVLATNING IQTISODIY XAVFSIZLIGI" TOIFASIGA YONDASHUVLARNING PAYDO BO'LISHI VA EVOLYUTSIYASI	384
Karimov Javlon Ko'ziyevich	
ESG (ENVIRONMENTAL, SOCIAL, GOVERNANCE) TAMOIYLLARINI DAVLAT ISHTIROKIDAGI KORXONALARDA JORIY ETISH.....	395
Ismailov Allayor Rashidovich	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA ISHLAB CHIQRISHNI SIFAT MENEJMENTI TAMOIYLLARI ASOSIDA TASHKIL ETISHDAGI MAVJUD MUAMMOLAR.....	405
Achilov Ilmurad	
INVESTITSION SALOHİYATNI OSHIRISH ORQALI MINTAQALARNI IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	415
Qobilov Anvar Eshpo'lotovich	
"YASHIL IQTISODIYOT" TAMOIYLLARI ASOSIDA IQTISODIY XAVFSIZLIK SOHASIDA BOSHQARUV QARORLARINI ASOSLASHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI.....	424
Ibrogimov Sherzodbek Xalimjon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA SUG'URTA KOMPAIYALARINING INVESTITSION FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	433
Haqberdiyev Bekzod Uktamovich	
O'ZBEKISTONDA BARQAROR IQTISODIY O'SISH VA ATROF MUHIT MUHOFAZASINI TA'MINLASH MAQSADIDA KICHIK BIZNES VA YASHIL LOYIHALARNI MOLIVALASHTIRISH MEXANIZMLARI	444
Uskenbayeva Dilnoza Bakhodir qizi	
TRANSPORT TIZIMLARIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	453
Saidmurodov Feruz Sodiqjon o'g'li	

MAMLAKAT IQTISODIYOTIDA OZIYQ-OVQAT SANOATI KORXONALARI FAOLIYATINI STRATEGIK BOSHQARISH MASALALARI	459
Xusanova Gavhar	
O'ZBEKISTONDA AHOLI TURMUSH FARAVONLIGI ASOSIY KO'RSATKICHLARI VA ULAR DINAMIKASI TAHLILI.....	467
Atayev Jahongir Erkinovich	
СОВРЕМЕННАЯ МЕТОДОЛОГИЯ ОЦЕНКИ ФАКТОРОВ, ВЛИЯЮЩИХ НА РАЗВИТИЕ СУБЪЕКТОВ МАЛОГО БИЗНЕСА	476
Исраилов Рустамбек Ибрагимович	
REKLAMA XIZMATLARI BOZORIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISH BO'YICHA XORIY TAJRIBASI VA UNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH YO'NALISHLARI.....	487
Xamrakulov Azamat Baxritdinovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BAHOLASH VA BOSHQA TUZILMALARNING O'ZARO HAMKORLIK MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	496
Rixsimbayev Odiljon Kabildjanovich	
MINTAQAVIY RIVOJLANISH VA SANOAT KORXONALARINI JOYLASHTIRISHNING IQTISODIY MOHIYATI.....	505
Nuritdinov Botir Kodirxanovich	
INVESTITSIYALAR VA ULARDAN TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA SAMARALI FOYDALANISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	517
Isakov Axmadali Esanbaevich	
KORXONALARNI BUDJETLASHTIRISH ASOSIDA BOSHQARISHNING XALQARO TAJRIBALARI.....	525
Sobirov Shoyadbek Kurbonaliyevich	
IQTISODIYOTGA XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH BO'YICHA JORIY MEXANIZMLARNING TAHLILI	537
Tirkashev Farruxjon Xolyigitovich	
TASHABBUSLI BYUDJETLASHTIRISHNI AMALGA OSHIRISH MEXANIZMLARIGA QARATILGAN CHORA-TADBIRLAR HAMDA ERISHILGAN NATIJALAR TAHLILI.....	545
Xamidov Xabibullo Xikmatulla o'g'li	
ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN DIGITAL MARKETING OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS IN UZBEKISTAN.....	553
Sadikov Shokhrux Shukhratovich	
INVESTITSIYALARNI MOLIYAVIY BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	558
Ismailov Dilshod Anvarjonovich	
TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA TURIZM SOHASIDA ZAMONAVIY BOSHQARUV MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISH	566
Tajieva Shaxnoza Mamarejabovna	
MINTAQALAR KESIMIDA INNOVATSION SALOHİYAT NOMUTANOSIBLIKLARINING SABABLARI VA EKONOMETRIK TAHLILI.....	576
Dadamirzayev Muzaffar Xabibullayevich	
MINTAQAVIY SANOATNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI.....	586
Ochilov Akram Odilovich, Ro'ziqulov Jamshid Ulug'bek o'g'li	
SUG'URTA INSTITUTLARI FAOLIYATIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH VA UNING IQTISODIY KO'RSATKICHLARGA TA'SIRI.....	594
Sherov Sanjar Radjabovich	

TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA TURIZM SOHASIDA ZAMONAVIY BOSHQARUV MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISH

Tajieva Shaxnoza Mamarejabovna

Alfraganus University o'qituvchisi

ORCID-0009-0008-4720-496

E-mail: shakhnozatajjeva76@icloud.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada transformatsiya jarayonlari sharoitida O'zbekiston turizm sohasida zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini shakllantirish masalalari kompleks tahlil qilinadi. So'nggi yillarda mamlakatda turizmni iqtisodiyotning strategik tarmog'i sifatida rivojlantirishga qaratilgan keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. 2020-2024-yillar davomidagi statistik ma'lumotlar asosida turistlar oqimi, eksport tushumlari va turizmning YAIMdagi ulushi kabi ko'rsatkichlar tahlil qilingan. Turizm sohasida boshqaruvning samarali mexanizmlari - raqamli texnologiyalar, davlat-xususiy sheriklik, inson kapitali va hududiy rivojlanish asosida shakllantirish, boshqaruvning zamonaviy modellari, integratsiyalashgan raqamli platformalar, turizm sohasida zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini shakllantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: turizm boshqaruvi, transformatsiya jarayoni, raqamli texnologiyalar, davlat-xususiy sheriklik, turizm siyosati, inson kapitali, turistik infratuzilma, strategik marketing, turizmدا innovatsiyalar, hududiy rivojlanish, barqaror turizm, turizm xizmatlari eksporti, turistlar oqimi.

Аннотация

В данной статье будет проведен комплексный анализ вопросов формирования современных механизмов управления в сфере туризма Узбекистана в условиях трансформационных процессов. В последние годы в стране проводятся масштабные реформы, направленные на развитие туризма как стратегической отрасли экономики. На основе статистических данных за 2020-2024 годы были проанализированы такие показатели, как поток туристов, экспортные поступления и доля туризма в ВВП. Разработаны предложения по формированию эффективных механизмов управления в сфере туризма — на основе цифровых технологий, государственно-частного партнерства, человеческого капитала и территориального развития, современных моделей управления, интегрированных цифровых платформ, современных механизмов управления в сфере туризма.

Ключевые слова: управление туризмом, процесс трансформации, цифровые технологии, государственно-частное партнерство, туристская политика, человеческий капитал, туристская инфраструктура, стратегический маркетинг, инновации в туризме, территориальное развитие, Устойчивый туризм, экспорт туристских услуг, поток туристов.

Abstract

In this article, a comprehensive analysis of the issues of formation of modern management mechanisms in the field of Tourism of Uzbekistan in the context of

transformation processes is carried out. In recent years, the country has undergone extensive reforms aimed at developing tourism as a strategic sector of the economy. On the basis of statistics for the period 2020-2024, indicators such as tourist flow, export receipts and the share of tourism in GDP were analyzed. In the field of Tourism, proposals have been developed for effective management mechanisms — digital technologies, state-owned partnerships, formation on the basis of human capital and territorial development, modern management models, integrated digital platforms, the formation of modern management mechanisms in the field of Tourism.

Keywords: tourism management, transformation process, digital technology, public-private partnership, tourism policy, human capital, tourist infrastructure, strategic marketing, innovation in Tourism, Regional Development, Sustainable Tourism, tourism services export, tourist flow.

KIRISH

Turizm XXI asrdagi eng tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan va global iqtisodiyotda strategik ahamiyat kasb etayotgan sohalardan biri hisoblanadi. U dunyo iqtisodiyotining qariyb 10 foizini tashkil qilib, millionlab odamlar uchun ish o'rni, ko'plab mamlakatlar uchun valyuta tushumlari va iqtisodiy o'sish manbaidir. Jahon sayyohlik tashkiloti (UNWTO) ma'lumotlariga ko'ra, har yili milliarddan ortiq inson xalqaro sayohat qiladi va bu raqam yildan-yilga o'sib bormoqda. Bunday tez rivojlanish fonida turizm sohasini samarali boshqarish masalasi har bir davlat uchun strategik vazifaga aylanmoqda.

Ayniqsa, so'nggi yillardagi global inqirozlar – pandemiya, geosiyosiy tartibsizliklar, iqlim o'zgarishi – turizm sohasini yangi formatda qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Endilikda nafaqat turistik mahsulot, balki uning tashkil etilishi, boshqarilishi, raqamlashtirilishi va mijoz ehtiyojlariga moslashuvi muhim hisoblanadi. Bu esa sohani boshqarishda an'anaviy usullarning o'rnini innovatsion va moslashuvchan mexanizmlarga bo'shatishini anglatadi.

Turizm yo'nalishiga qo'shimcha investitsiyalarni jalb qilish, xususiy sektor uchun qulay shart-sharoitlar yaratish orqali turizm infratuzilmasini yanada takomillashtirish, aholi bandligini oshirish, transport qatnovi yo'nalishlarini kengaytirish, respublikaning turistik salohiyatini ichki va tashqi bozorlarda targ'ib qilishni jadallashtirish, shuningdek, sohani davlat tomonidan boshqarishda yangi tartib-taomillarni joriy qilish maqsadida: turoperatorlar tomonidan turistik oqim past bo'lgan xorijiy mamlakatlardan O'zbekiston Respublikasiga olib kelingan har bir turist uchun 20 AQSH dollaridan 100 AQSH dollarigacha bo'lgan ekvivalentda rag'batlantiruvchi subsidiyalar ajratilsin; turistik oqim past bo'lgan xorijiy mamlakatlar ro'yxati, olib kelinadigan turistlar soni va rag'batlantiruvchi subsidiyalar miqdori hamda ularni berish tartibi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziri tomonidan tasdiqlansin; turoperatorlar va aviatashuvchilarning xorijiy mamlakatlardan Samarqand, Buxoro va Urganch xalqaro aeroportlariga amalga oshirilgan charter aviaqatnovlari bo'yicha xarajatlarning bir qismi har bir xorijiy turist uchun, u respublika hududida kamida besh kecha tunab qolgan taqdirda, 20 AQSH

dollari, qish mavsumida (20-noyabrdan 20-fevralgacha) esa 50 AQSH dollari ekvivalentida qoplab berilsin.[1]

O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga olib chiqilgan. Mamlakat Prezidentining qator farmon va qarorlari orqali turizm infratuzilmasini yaxshilash, vizasiz rejimlarni joriy etish, yangi turistik yo'nalishlar va brendlar yaratish, viloyatlarda turizmning maxsus turlarini (ziyosat, ekoturizm, agroturizm) rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligi ko'p jihatdan ularni boshqarish tizimining qanday shakllantirilishiga bog'liq bo'lib qolmoqda.

Hozirgi paytda turizm boshqaruvida bir qancha muammolar mavjud: davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikning tizimli emasligi; raqamli texnologiyalardan foydalanishning cheklanganligi; ma'lumotlar bazasining tartibga solinmagani; turizmni boshqarishda hududiy disbalans va markazlashgan qaror qabul qilish jarayonlari; marketing va brendlashtirish strategiyalarining samarasizligi.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun zamonaviy, raqamlashtirilgan, inson kapitaliga asoslangan va bozor mexanizmlari bilan uyg'unlashgan boshqaruv modellarini joriy etish zarur.

Bugungi kunda turizm nafaqat milliy iqtisodiyotni rivojlantiruvchi muhim sohalardan biri, balki ijtimoiy barqarorlik, madaniy muloqot va hududiy taraqqiyotni ta'minlovchi strategik instrument sifatida qaralmoqda. Jahon miqyosida kuzatilayotgan global o'zgarishlar – geosiyosiy xavfsizlik, energetik inqiroz, pandemiyaning oqibatlari va texnologiyalarning ulkan sur'atlarda rivojlanishi – turizm sohasidagi boshqaruv modellarini qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Eskicha, byurokratik va markazlashgan boshqaruv usullari tezkor qaror qabul qilish, samaradorlik, shaffoflik va raqobatbardoshlikni ta'minlashda yetarli emas.

Shu bilan birga, turizm sohasidagi islohotlarning kengayishi va davlat siyosatining faollashuvi sohani transformatsiya qilish uchun unikal sharoit yaratmoqda. Xususan, 2016-yildan keyin joriy etilgan huquqiy-me'yoriy baza, viza tizimidagi liberallashtirish, viloyatlarda «turizm klasterlari»ni yaratish tashabbuslari – bularning barchasi boshqaruv jarayonlariga yangi yondashuvlarni talab qiladi. Ana shunday sharoitda turizmni raqamlashtirish, xususiy sektorni jalb etish, davlat va jamoatchilik o'rtasida muloqotni yo'lga qo'yish, sifatli kadrlar tayyorlash kabi vazifalar dolzarblikning amaldagi ifodasiga aylanadi.

Turizm yirik shaharlar bilan cheklanmasdan, qishloq va chekka hududlarda ham yangi iqtisodiy faollik nuqtalarini yuzaga keltiradi. Bu esa infratuzilmani yaxshilash, aholi bandligini ta'minlash, madaniy merosni saqlash va atrof-muhitga mas'uliyatli munosabatni targ'ib qilishda turizm boshqaruvining ahamiyatini yanada oshiradi.

Shu asosda aytish mumkinki, turizm sohasida zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini shakllantirish masalasi faqat amaliyot emas, balki keng qamrovli ilmiy va strategik yondashuvni talab etadigan dolzarb masaladir.

ADABIYOTLAR SHARHI

Turizm boshqaruviga oid ilmiy tadqiqotlar soni soʻnggi oʻn yillikda sezilarli darajada ortib bordi. Ushbu sohada ilmiy qarashlar turli maktablar va yondashuvlar asosida shakllanmoqda.

Maykl Porter tomonidan ishlab chiqilgan «raqobat ustunligi» nazariyasi turizm sohasi uchun ham dolzarb hisoblanadi. Uning taʼkidlashicha, mamlakatning raqobatbardoshligi tabiiy resurslarga emas, balki samarali boshqaruv va innovatsiyaga bogʻliq. Porterning modelidan kelib chiqib, turizm sohasida boshqaruv mexanizmi faqat davlat siyosatiga emas, balki xususiy sektorning tashabbusi va bozor mexanizmlariga integratsiya darajasiga ham bogʻliq ekanligi koʻriladi.[2]

Richi va Krouch tomonidan taklif qilingan turistik yoʻnalish raqobatbardoshligi modelida esa turizmni boshqarishda siyosiy barqarorlik, iqtisodiy muhit, texnologiyalar darajasi va inson kapitali asosiy mezonlar sifatida belgilanadi. Ushbu yondashuv, albatta, Oʻzbekiston turizm sektoridagi muammolarni tahlil qilishda qimmatli nazariy asos boʻla oladi. Biroq, ushbu model koʻproq rivojlangan mamlakatlar sharoitiga mos keladi va oʻsib kelayotgan bozorlar, ayniqsa, markaziy boshqaruvga ega davlatlar sharoitida toʻliq ishlamayotganini koʻrsatadi.[3]

Dwyer, Edwards va Mishra oʻz tadqiqotlarida davlat va xususiy sektor oʻrtasidagi hamkorlikni muvaffaqiyatli turizm boshqaruvining kaliti deb baholaydi. Ularning fikricha, jamoat sektori tomonidan taqdim etiladigan infratuzilma va siyosiy qoʻllab-quvvatlash, xususiy sektorning xizmat koʻrsatish madaniyati va innovatsiya salohiyati bilan uygʻunlashsa, barqaror rivojlanishga erishish mumkin. Bu fikrlar Oʻzbekistondagi davlat-xususiy sheriklik loyihalarini qayta koʻrib chiqish zarurligini anglatadi.[4]

D.Buhalis oʻzining ilmiy izlanishlarida, raqamli texnologiyalarning turizm sohasidagi boshqaruvga taʼsirini oʻrgangan yetakchi tadqiqotchilardan biri. Uning taʼkidlashicha, turizmdagi raqobatbardoshlik va samaradorlik innovatsion ICT (Information and Communication Technologies) tizimlarini joriy etish bilan chambarchas bogʻliq.[5] Buhalis raqamli boshqaruv modellarida elektron hukumat, mobil platformalar, Big Data va CRM tizimlarini strategik jihatdan boshqarishni tavsiya etadi. Uning tahlillari asosan Yevropa mamlakatlari tajribasiga asoslangan boʻlsa-da, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun adaptatsiya imkoniyatlari mavjud [6].

C.M. Hall tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda, turizm siyosatining boshqaruv jarayoniga taʼsirini oʻrganadi. Uning fikricha, samarali turizm boshqaruvi faqat iqtisodiy mexanizmlarga emas, balki siyosiy institutlar, davlat islohotlari va ijtimoiy barqarorlik darajasiga ham bogʻliq. U bu jarayonda davlatning «fasilitator» emas, «katalizator» sifatida harakat qilishi kerakligini taʼkidlaydi. Uning fuqarolik jamiyatini boshqaruvga jalb qilish boʻyicha takliflari ayniqsa dolzarb hisoblanadi [7].

C.Cooper va J.Fletcher oʻzlarining tadqiqotlarida, inson kapitali va taʼlimning turizm boshqaruviga taʼsirini oʻrganadi. Ularning taʼkidlashicha, turizm sohasidagi kadrlar salohiyati yetarlicha boʻlmasa, boshqaruvdagi har qanday innovatsiya muvaffaqiyatga erisha olmaydi. Shu sababli, turizm taʼlimi va malaka oshirish tizimini zamonaviy talablarga moslashtirish boshqaruvdagi uzluksiz rivojlanish garovidir [8].

P.Mason esa barqaror turizm boshqaruvini o'rganib, resurslardan oqilona foydalanish, mahalliy aholining manfaatlarini hisobga olish va turizmni ekotizimlarga zarar yetkazmaslik asosida boshqarishni taklif etadi. Uning modelida faqat iqtisodiy samaradorlik emas, ijtimoiy va ekologik indikatorlar ham boshqaruv samarasini baholashda asos sifatida keltiriladi [9].

Mahalliy tadqiqotchilar tomonidan ham turizmni boshqarish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Sh.Mirzaev o'zining tadqiqotlarida, O'zbekistondagi turistik infratuzilmaning hududiy nomutanosibligini tanqidiy o'rganadi va boshqaruv tizimini mahalliy darajada moslashuvchanlashtirishni taklif qiladi.[10] Uning fikricha, markazlashgan boshqaruv tizimi viloyatlardagi turizm salohiyatini to'liq ishga solishga to'sqinlik qilmoqda.

Q.Abduraxmonov esa davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining real amaliyotda samarasiz qo'llanilayotganini, investorlar uchun shaffof va barqaror shart-sharoit yo'qligini ta'kidlaydi. Uning tadqiqotida boshqaruv tizimidagi nomuvofiqliklar va reglamentlashmagan jarayonlar xususiy sektor faoliyatini cheklab qo'yayotgani tahlil qilinadi.[11]

I.Ochilov va A.Toshpulatov esa turizm sohasida raqamli texnologiyalarni joriy etish masalasini ilmiy asosda ko'rib chiqishgan. Ularning fikricha, ma'lumotlar markazlashmagani, yagona elektron ekotizimning yo'qligi boshqaruvdagi samaradorlikni pasaytiradi. Shu bois, raqamlashtirish faqat texnik vosita emas, balki strategik boshqaruv elementi sifatida qaralishi lozim. [12]

A.A.Juraev o'zining tadqiqotlarida, O'zbekistondagi turistik marketing boshqaruvini o'rganib, xorijiy tajriba bilan taqqoslagan. Uning tahlillarida ko'pgina mahalliy turistik tashkilotlarda strategik marketing rejalashtirish, mijoz-bop xizmatlar taklif etish va bozor tendensiyalarini aniqlashda jiddiy kamchiliklar mavjudligi ko'rsatilgan [13].

B.Komilov va Sh.Rahimovlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda, O'zbekistondagi turizm sohasini raqamlashtirishga oid harakatlarni tahlil qilib, raqamli boshqaruvning faqat xizmat ko'rsatish emas, balki strategik rejalashtirish va tahlil vositasi sifatida foydalanilishi kerakligini ta'kidlaydi. Ularning fikricha, ma'lumotlar bilan ishlash madaniyati va axborot tizimlari integratsiyasi boshqaruvni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqadi [14].

Tahlil qilingan adabiyotlardan ko'rinib turibdiki, turizm sohasidagi boshqaruvga oid nazariy qarashlar turlicha. Xorijiy tadqiqotlar asosan rivojlangan bozorlar sharoitiga mo'ljallangan va ularning mexanizmlari to'g'ridan to'g'ri O'zbekiston sharoitida qo'llanilmasligi mumkin. Mahalliy tadqiqotlar esa ko'proq tavsifiy va holatni bayon etuvchi xarakterga ega bo'lib, konkret innovatsion modellar va amaliyotda qo'llash mumkin bo'lgan strategiyalarni taklif etishda hali yetarlicha rivojlanmagan.

Shu sababli, mavjud ilmiy ishlarga tayangan holda, zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini O'zbekistonning iqtisodiy, ma'muriy va madaniy realliklariga mos holda qayta ishlab chiqish, joriy etish va modellash muhim ilmiy va amaliy vazifa hisoblanadi.

METODOLOGIYA

Transformatsiyalash sharoitida turizm sohasida zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini shakllantirishni tizimli tahlil, tarixiylik va mantiqiylik, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, qiyosiy va selektiv tanlab tadqiq qilish, monografik tahlil va guruhlash usullari qoʻllanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR


Oʻzbekiston uchun turizm sohasini isloh qilish nafaqat iqtisodiy diversifikatsiya nuqtai nazaridan, balki milliy brending, xalqaro imij va mahalliy hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojida muhim omil sifatida dolzarblik kasb etadi. Mamlakatdagi boy tarixiy-madaniy meros, betakror tabiiy resurslar va mehmondoʻstlik anʼanalari turizmni rivojlantirish uchun mustahkam poydevor boʻlib xizmat qilmoqda. Biroq, ushbu salohiyatdan toʻliq foydalanish uchun zamonaviy boshqaruv mexanizmlari, innovatsion yondashuvlar va xususiy sektor ishtirokini kengaytirish zarur.

Raqamli transformatsiya jarayonlarining turizmga taʼsiri natijasida raqamli platformalar, elektron xizmatlar, onlayn bronlash va mobil ilovalar turistik xulq-atvorni tubdan oʻzgartirmoqda. Bu esa boshqaruvda moslashuvchan, texnologik asoslangan modellarga ehtiyojni keskin oshirmoqda. Shu sababli, soha rahbarlari va tadbirkorlar faqatgina xizmatlarni taklif etish emas, balki raqobatbardoshlikni taʼminlash uchun boshqaruvda strategik innovatsiyalarga tayanmoqlari lozim.

1-jadval.

Turizm xizmatlari eksport va YAIMdagi ulushi¹

№	Yillar	Turizm xizmatlari eksporti (mln. AQSH dollari)	YAIM (mln. AQSH dollari)	YAIM da turizmning ulushi, %
1	2020	395	58	0,68
2	2021	679	69	0,98
3	2022	1600	80	2,0
4	2023	2500	90	2,78
5	2024	3500	105	3,33




1-rasm. Turizm boshqaruvining transformatsiyalash mexanizmlari²

¹ Muallif ishlanmasi

² Muallif ishlanmasi

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yilda turizm xizmatlari eksporti 2020-yilda 395 mln. AQSH dollar, 2021-yilda 679 mln. AQSH dollar, 2022-yilda 1600 mln. AQSH dollar, 2023-yilda 2500 mln. AQSH dollar va 2024-yilda 3500 mln. AQSH dollarni tashkil qilgan. Turizm xizmatlari eksporti va YAIMdagi ulushi yildan yilga oshib borganini ko'rishimiz mumkin.

1-rasmda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, davlat siyosatining strategik maqsadlari (turizmni ekonomik diversifikatsiya, hududiy rivojlanish, madaniy merosni muhofaza qilish) turizm boshqaruvining yo'nalishini belgilaydi. Infratuzilma investitsiyalari aeroport, transport, mehmonxona, suv, kommunal xizmatlarning sifati, turistlar uchun qulayliklarni ta'minlaydi. Vizasiz rejim va elektron xizmatlar keluvchi turistlar sonini oshirishda muhim faktor bo'ladi (ariza berish, nazorat, cheklovlarni yengillashtirish). Xususiy sektor ishtirokini kengaytirish – investitsiya, xizmatlarning turlilanishi, innovatsiyalarning joriy qilinishi. Raqamli texnologiyalar va ma'lumotlar boshqaruvi (ICT, analitika) qaror qabul qilishni tezlashtiradi, marketingni va sifat nazoratini takomillashtiradi. Sifatli brendlashtirish va marketing strategiyalari – xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlikni oshiradi. Ushbu bosqichlar o'z navbatida turistlar keluvi va turizmdan tushgan daromadlarning sezilarli darajada o'sishiga olib keladi.



2-rasm: Turizmni transformatsiyalashda boshqaruv mexanizmining qismlari va o'zaro bog'liqligi¹

Rasmda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, huquqiy-me'yoriy baza (vizalar, litsenziyalar, soliq, investitsiya shartlari) boshqaruvning fundamental qismi, shu asosda boshqaruv mexanizmlari samarasi belgilanadi. Davlat-xususiy sheriklik (DXSh) infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishda, xizmatlarning turini kengaytirishda muhim. Infratuzilma loyihalari (aeroportlar, transport, mehmonxona

¹ Muallif ishlanmasi

quvvatlari) turist tajribasini yaxshilash uchun zarur. Raqamli transformatsiya (elektron xizmatlar, ma'lumotlar tahlili, CRM, marketing avtomatizatsiyasi) raqobatbardoshlikni oshiradi. Marketing va brendlashtirish yordamida xalqaro bozorlarda O'zbekiston o'zini yanada jozibador qilishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda turizm sohasi so'nggi yillarda keng ko'lamli transformatsiya jarayonlarini boshidan kechirmoqda. 2020-2024 yillar davridagi tahlillar shundan dalolat beradiki, turizm nafaqat iqtisodiy diversifikatsiyaning muhim omili, balki hududiy rivojlanish, madaniy merosni asrash, yangi ish o'rinlari yaratish va mamlakatning xalqaro imijini mustahkamlashda ham strategik ahamiyatga ega sohalardan biriga aylanmoqda.

Jahonda kuzatilayotgan global raqobat, raqamli transformatsiya, turistik afzalliklar dinamikasining o'zgarishi va mijoz talablarining yuqori darajada personallashtirish – sohada boshqaruv mexanizmlarini tubdan yangilashni taqozo etmoqda. O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, zamonaviy boshqaruv instrumentlarini joriy etmasdan, turizm sohasida uzoq muddatli barqaror o'sishga erishish murakkab bo'ladi.

Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra quyidagi xulosalarga erishildi:

1. Turizm sohasi izchil tiklanish fazasiga kirdi. 2020-2021 yillarda turistlar oqimi va turizmdan tushgan daromadlarda sezilarli pasayish kuzatildi. Biroq 2022-2024 yillarda sohada qayd etilgan tiklanish va o'sish sur'atlari davlat tomonidan qabul qilingan strategik islohotlar, vizasiz rejimlar, infratuzilmaviy investitsiyalar, targ'ibot va raqamli xizmatlar orqali amalga oshirildi.

2. Boshqaruvdagi yutuqlar bilan birga tizimli muammolar ham mavjud. Ijobiy o'zgarishlarga qaramay, soha boshqaruvida hali ham quyidagi kamchiliklar mavjud:

- sohalar va tashkilotlar o'rtasida yetarlicha muvofiqlashuvning yo'qligi;
- ma'lumotlar bazalarining tarqoqligi va statistikaning shaffof emasligi;
- hududiy turistik salohiyatning to'liq ishlatilmayotgani;
- xususiy sektor uchun barqaror huquqiy va moliyaviy kafolatlarning yetishmasligi;
- inson kapitali salohiyati va ta'lim tizimining bozor talablariga mos emasligi.

Bu kamchiliklarni bartaraf etish uchun boshqaruv mexanizmlarini yanada chuqur isloh qilish zarur.

3. Zamonaviy boshqaruv mexanizmlari - barqaror o'sish garovi. Turizm sohasini strategik darajada boshqarish uchun quyidagi yo'nalishlarda zamonaviy mexanizmlarni joriy etish shart:

- integratsiyalashgan raqamli ekotizimlar: Turizm obyektlari, xizmatlar, logistika va foydalanuvchilar o'rtasida yagona axborot tizimlarini yo'lga qo'yish.
- ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv (data-driven governance): Turist xulq-atvori, bozor dinamikasi va xizmat sifatini tahlil qilish uchun Big Data va AI yechimlarini joriy etish.
- davlat-xususiy sheriklikni institutsionallashtirish: Yagona DPPP (Digital Public-Private Partnership) modeli orqali xususiy investitsiyalarni rag'batlantirish.

-turizm xizmatlarining sertifikatlash va reytinglash tizimini joriy etish: Sifatni nazorat qilish va xalqaro standartlarga muvofiq xizmatlar ko'rsatilishini ta'minlash.

4. Hududiy rivojlanish va ijtimoiy samara. Turizm hududlarda yangi iqtisodiy nuqtalarni yaratadi. Qishloq turizmi, ekoturizm, ziyorat va agroturizm kabi yo'nalishlarni mahalliy aholi ishtirokida tashkil etish - aholining daromad manbalarini diversifikatsiya qilish, demografiyada ijobiy o'zgarishlar qilish va hududiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bois, boshqaruvda ijtimoiy innovatsiyalar va jamoatchilik ishtirokini ham inobatga olish zarur.

5. Ta'lim, kadrlar va inson kapitali. Turizm sohasida kadrlar tayyorlashda:

- amaliyotga yo'naltirilgan o'quv dasturlari,
- dual ta'lim modeli (ta'lim + ishlab chiqarish),
- xorijiy tajriba almashinuvi dasturlari va
- mahalliy kadrlarni qayta tayyorlash markazlari tashkil etish juda muhim.

Mutaxassislar faqat mehmonxona xizmatiga emas, balki raqamli marketing, logistika, turoperatorlik, branding kabi sohalarida ham malakali bo'lishi lozim.

6. Turizm siyosatining strategik jihatlari qayta ko'rib chiqilishi lozim. Milliy turistik strategiyalar global trendlarga moslashishi kerak:

- barqaror turizm (sustainable tourism),
- tajribaga asoslangan turizm (experience-driven tourism),
- ekologik mas'uliyat va madaniy hassoslikni ta'minlaydigan xizmat modellari.

Bu tamoyillar asosida hozirgi va kelgusi boshqaruv tizimlari qayta ishlab chiqilishi shart.

Turizm sohasini transformatsiyalash bugungi sharoitda nafaqat iqtisodiy zarurat, balki davlatning umumiy modernizatsiya siyosatining uzviy qismiga aylangan. Zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish - sohani raqobatbardosh, samarali va barqaror qilishning yagona yo'lidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-iyul PQ-238 sonli "Turizm yo'nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori <https://lex.uz/docs/-6549286>

2. Porter M.E. (1985). Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. New York: Free Press.

3. Ritchie J.R.B., & Crouch, G.I. (2003). The Competitive Destination: A Sustainable Tourism Perspective. CABI Publishing.

4. Dwyer L., Edwards D., Mistilis N., Roman C., Scott, N. (2009). Destination and enterprise management for a tourism future. Tourism Management, 30(1), 63-74.

5. Buhalis D. (2000). Marketing the Competitive Destination of the Future. Tourism Management, 21(1), 97-116.

6. Buhalis D. (2003). eTourism: Information Technology for Strategic Tourism Management. Pearson Education.

7. Hall C.M. (2008). Tourism Planning: Policies, Processes and Relationships. Pearson Education.

8. Cooper C., & Fletcher J. (1993). *Tourism: Principles and Practice*. Longman Group.
9. Mason P. (2016). *Tourism Impacts, Planning and Management*. Routledge.
10. Mirzaev Sh. (2020). Turizm infratuzilmasini rivojlantirishda hududiy yondashuvning ahamiyati. *Iqtisodiyot va ta'lim*, №3, 45–50.
11. Abduraxmonov Q. (2022). Davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining turizmdagi samaradorligi. *Turizmda yangi tendensiyalar*, №2, 19–25.
12. Ochilov I., & Toshpulatov A. (2021). Turizm sohasini raqamlashtirish: muammo va yechimlar. *Innovatsion taraqqiyot jurnali*, №4, 33–40.
13. Juraev A.A. (2021). Turizmda marketing boshqaruvining dolzarb masalalari. *O'zbekiston iqtisodiyotining innovatsion rivojlanishi*, №1, 27–32.
14. Komilov B., & Rahimov Sh. (2020). Turizmda raqamli boshqaruv va uning amaliy ahamiyati. *Iqtisodiyot va boshqaruv*, №2, 14–19.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhih: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, sentyabr, 9-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketingjournalbot](https://t.me/@marketingjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГОСТ 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlato standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**